


## IX. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 1 775,5 mln AQSH dollari tashkil etgan, jumladan 722,6 mln AQSH dollarini-eksport, 1 052,8 mln AQSH dollarini import tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining saldosi -330,2 mln AQSH dollarini tashkil qildi.

**Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**  
(mln AQSH dollari)




So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2025-yil yanvar-dekabr oylari viloyat tashqi savdo aylanmasida**

### MDH va boshqa davlatlarning ulushi

(mln AQSH dollar va foizda)



2024- yil yanvar-dekabr



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

2025- yil yanvar-dekabr  
45,9



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,5 % ga, MDH davlatlari 118,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 138,3 % ga ko'paygani kuzatildi.

Jumladan, jami eksport aylanmasi 115,5 % ni va shundan MDH davlatlari 114,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlarga 120,1 % ni tashkil etdi.

Jami import aylanmasi 139,3 % ga ko'paygan bo'lib, undan MDH davlatlari 129,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 143,3 % ga ko'paygan.

### MDH va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)

	yanvar-dekabr		O'sish sur'ati, % da
	2024- yil	2025- yil	
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>1 381,5</b>	<b>1 775,5</b>	<b>128,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	686,8	815,0	118,7
Boshqa davlatlar	694,7	960,5	138,3
<b>Eksport</b>	<b>625,6</b>	<b>722,6</b>	<b>115,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	475,6	542,6	114,1
Boshqa davlatlar	150,0	180,1	120,1
<b>Import</b>	<b>755,9</b>	<b>1 052,8</b>	<b>139,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	211,2	272,5	129,0
Boshqa davlatlar	544,7	780,4	143,3

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

Viloyatdagi eksport-import tarkibi

	Umumiy hajm <i>mln AQSH dollar</i>		2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan % da
	2024- yil yanvar- dekabr	2025- yil yanvar-dekabr	
<b>Eksport tarkibi</b>	<b>625,6</b>	<b>722,6</b>	<b>115,5</b>
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	106,4	159,3	150,2
Ichimliklar va tamaki	2,3	2,3	102,3
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	8,5	7,2	84,9
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	5,8	9,6	166,1
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	10,1	6,2	61,3
Sanoat mahsulotlari	278,0	321,1	115,5
Mashinalar va transport uskunalari	52,6	16,6	31,6
Turli xil tayyor mahsulotlar	124,0	158,1	127,5
Xizmatlar	4,1	5,0	122,5
Boshqalar	8,0	9,3	116,5
<b>Import tarkibi</b>	<b>755,9</b>	<b>1 052,8</b>	<b>139,3</b>
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	161,7	314,3	194,4
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	46,3	66,0	142,6
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	11,4	26,8	2,3 m.
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	12,5	15,8	125,9
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	78,4	69,0	88,0
Sanoat mahsulotlari	161,9	204,8	126,4
Mashinalar va transport uskunalari	205,9	288,8	140,3
Turli xil tayyor mahsulotlar	18,3	18,7	102,3
Boshqalar	44,7	46,4	103,8

2025- yil yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda, (2024- yilning tegishli davriga nisbatan), Mashinalar va transport uskunalari -68,4 % kamaygani kuzatildi.

**2025-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasi yuqori ulushga ega davlatlar**

*(mln AQSH dollari)*

Davlatlar nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import
Rossiya Federatsiyasi	533,8	420,2	113,6
Xitoy	485,7	49,7	436,0
Turkiya	87,1	32,6	54,6
Qozog'iston	99,0	28,9	71,0
Hindiston	129,3	0,9	128,4
Qirg'iziston	79,3	48,5	30,8
Germaniya	49,9	19,6	30,3
Belarus	45,2	7,3	37,9
Koreya Respublikasi	27,6	1,0	26,6
Pokiston	21,8	19,4	2,4
Indoneziya	14,9	0,0	14,9
Polsha	8,8	5,8	2,9
Tojikiston	28,8	21,6	7,3
Eron	15,7	9,7	6,0
Afg'oniston	13,5	12,2	1,3
Italiya	9,8	1,0	8,8
Turkmaniston	13,5	5,8	7,8
Malayziya	14,5	0,0	14,5
Ukraina	8,6	5,0	3,6
AQSH	7,0	5,7	1,4

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 81 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (30,1 %), Xitoy Xalq Respublikasida (27,4 %), Qozog‘istonda (5,6 %), Hindistonda (7,3 %), Turkiyada (4,9 %), Germaniya (2,8 %) va Belarusiya (2,5 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

**2025- yil yanvar- dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar**

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan % da
Rossiya Federatsiyasi	30,1	119,8
Xitoy	27,4	149,4
Qozog‘iston	5,6	114,7
Hindiston	7,3	179,4
Turkiya	4,9	119,1
Germaniya	2,8	96,4
Qirg‘iziston	4,5	103,4
Belarus	2,5	121,6
Koreya Respublikasi	1,6	124,1
Pokiston	1,2	2,0 m.
Indoneziya	0,8	146,2
Tojikiston	1,6	2,3 m.
Eron, Islom Respublikasi	0,9	177,5
Italiya	0,6	95,2
Turkmaniston	0,8	103,0

*jadval davomi*

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan % da
Malayziya	0,8	136,6
Afg‘oniston	0,8	164,5
Polsha	0,5	54,6
Ukraina	0,5	113,8
Aqsh	0,4	2,0 m.
Litva	0,2	69,8
Ozərbayjon	0,3	88,7

### 2025- yil yanvar-dekabr oylarida jami eksport tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)

■ Oziq-ovqat va tirik hayvonlar

■ Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari

■ Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar


■ Ishlab chiqarilgan mahsulotlar

■ Mashina va transport uskunalari

■ Har xil tayyor mahsulotlar

■ Xizmatlar

■ Boshqalar




2025-yil yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmiga nisbatan sanoat ulushi 44,4 %, har xil tayyor mahsulotlar eksportining ulushi 21,9 % ni hamda oziq ovqat va tirik hayvonlar eksportining ulushi esa 22,0 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti hajmi 11,5 mlnAQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 1,6 % ni tashkil etib, o'tgan-yilning mos davriga nisbatan 44,0 % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlardan iborat.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida jami eksport tovarlari  
hajmi shahar va tumanlar kesmida  
(ming AQSH dollari)

	yanvar-dekabr		O'sish sur'ati, % da
	2024- yil	2025- yil	
<b>Viloyat jami</b>	<b>625 559,5</b>	<b>722 640,7</b>	<b>115,5</b>
Namangan sh.	199 847,9	165 607,8	82,9
Mingbuloq	10 218,0	19 521,1	191,0
Kosonsoy	91 651,9	95 839,4	104,6
Namangan t.	23 045,0	24 791,3	107,6
Norin	14 012,2	18 962,1	135,3
Pop	45 912,8	21 312,1	46,4
To'raqo'rg'on	86 272,6	150 743,3	174,7
Uychi	50 299,7	55 311,9	110,0
Uchqo'rg'on	21 308,3	43 209,2	2,0 m.
Chortoq	4 412,3	5 353,2	121,3
Chust	54 111,1	56 960,8	105,3
Yangiqo'rg'on	15 499,5	21 938,0	141,5

**2025-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi, (% da)**




- Rossiya Federatsiyasi    ■ Boshqa davlatlar    ■ Qozog'iston    ■ Turkiya
- Pokiston    ■ Xitoy    ■ Qirg'iziston    ■ Germaniya

Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Pokiston, Germaniya va Qirg'iziston davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 85,5 % tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Pokiston, Germaniya va Qirg'iziston davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.


**2025- yil yanvar-dekabr oylarida jami import tovarlari  
hajmi shahar va tumanlar kesmida**

(ming AQSH dollari)

	yanvar–dekabr		O‘shish sur‘ati, %da
	2024- yil	2025- yil	
<b>Viloyat jami</b>	<b>755 914,1</b>	<b>1 052 839,9</b>	<b>139,3</b>
Namangan sh.	390 324,2	390 346,4	100,0
Mingbuloq	4 479,2	11 529,5	2,6 m.
Kosonsoy	24 928,7	39 938,4	160,2
Namangan t.	31 136,3	28 090,5	90,2
Norin	28 522,5	29 582,5	103,7
Pop	29 491,5	109 783,6	3,8 m.
To‘raqo‘rg‘on	45 337,1	64 105,6	141,4
Uychi	37 313,9	81 898,2	2,1 m.
Uchqo‘rg‘on	7 854,7	11 230,4	143,0
Chortoq	67 605,6	159 727,1	2,3 m.
Chust	71 549,1	97 832,8	136,7
Yangiqo‘rg‘on	17 264,2	13 463,5	78,0

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 29,8 % ni, mashina va uskunalar importining ulushi 27,4 % ni, sanoat mahsulotlari importining ulushi 19,4 % ni hamda kimyoviy moddalar va shunga o‘xshash mahsulotlar importining ulushi esa 6,6 % ni tashkil etdi.

**2025- yil yanvar-dekabr oylarida jami import tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)**



**2025- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat importida asosiy hamkor davlatlar ulushi**

2025- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatga 65 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shundan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va Belarus kabi hamkor davlatlarning jami import hajmi 962,7 mln AQSH dollarga teng. Bu esa umumiy import hajmining 91,4 % ni tashkil qiladi.

